

YOSH AVLODNI G'UYAVIY AXBOROT HURUJLARDAN SAQLASHNING STRATEGIK OMILLARI

Matluba Qaxxorova

(DSc), Nuriddin Sirojiddinov, "Vatan iftixor" ko'krak nishoni soxibi, O'zbekiston, Toshkent e-mail: snsirojiddinov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola globallashuv sharoitida yosh avlodni g'oyaviy axborot hurujlardan saqlash, o'tmishdagi bobomiz Imom Buxoriyning Islom dini rivojiga qo'shgan hissasi, Axborotning himoyasi tushunchalari va axborot xavfsizligi masalalariga bag'ishlanadi.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda, butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda, Ushbu soha albatta rivojlanishi kerak va buni qilamiz.. SH.M.Mirziyoyev (1.5)

Kalit So'zlar: Axborot kommunikatsiya, axborot xavfsizligi, globallashuv, tahdidlar, odob-axloq, ma'rifat, Imom Buxoriy, sahih hadis, zaif hadis, Mutaassiblik, axborot hurujlardan saqlash.

KIRISH

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo'lgan turli xil noan'anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bularndan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta'sir o'tkazish orqali millatlarning qadriyatlarini va turmush tarzini izdan chiqarishga qaratilgan odob-axloq, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi. (2.124)

Ma'naviy tahdidlar insonlar orasida turli ziddiyatlarga sabab bo'ladi.

"Fitna" deganda biz buzg'unchilik, maxfiy ravishda zarar yetkazishga urinish, fasod qo'zg'ashni tushunamiz. To'g'ri, fitna so'zida shu ma'no ustun. Ammo bu so'zning asl kelib chiqish mazmuni yanada kengroqdir. Lug'atshunoslarning ta'kidlashicha, "fitna" so'zi arablarda aslida oltinni o'tga tutib, yot moddalardan tozalashni anglatar ekan. Shundan kelib chiqib, "fitna" so'zi imtihon, sinov degan ma'nolarda ham ishlatiladigan bo'lgan.

Imom Buxoriyning "Sahihul Buxoriy" asaridagi "Fitnalar" bobida keltirilgan hadislar, nafaqat o'sha davr musulmon jamiyati uchun, balki bugungi zamon uchun ham dolzarbdur. Ushbu hadislar jamiyatni barqarorlikka, insonlarni esa tinchlikka chaqiruvchi asosiy manbalardan biridir. Imom Buxoriyning "Sahihul Buxoriy" asaridagi "Fitnalar" bobida jami 80 ta hadis o'rin olgan bo'lib bu hadislar fitnaning turli xil ko'rinishlarini, u sodir bo'lganda musulmon insonning pozitsiyasini aks ettirgan. (3.71) Imom Buxoriy bobomizning xotiralari juda kuchli bo'lganliklar bois, ko'plab hadislarini yoddan bilganlar va ularni "zaif" va "sahih" hadislariga ajratganlar.

Bugungi kunning tahdidlarning zamonaviy ko'rinishi sifatida internet global tarmoqlari orqali hali oq bilan qorani yaxshi farqlay olmaydigan o'smir yoshlarni o'z domiga tortib, turli xil islom diniga yod bo'lgan buzg'unchi g'oyalar bilan ularni zaxarlash,

manupulyatsiya qilish, o'z oilasi, yurtiga, jamiyatga qarshi qo'yish xolatlarini uchratishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

Uzoq o'tmishdan davlatning harbiy-strategik ahamiyatiga molik bo'lgan ma'lumotlar qat'iy sir tutilgan va himoyalangan va bu o'z davrining axborot xafvsizligi sanalgan.

Birinchi galda axborot xafvsizligi tushunchasiga to'xtalib o'tsak: Axborot xafvsizligi deb, ma'lumotlarni yo'qotish va o'zgartirishga yo'naltirilgan tabiiy yoki sun'iy xossali tasodifiy va qasddan ta'sirlardan har qanday tashuvchilarda axborotning himoyalanganligiga aytiladi. Ilgarigi xavf faqatgina konfidensial (maxfiy) xabarlar va hujjatlarni o'g'irlash yoki 2 nusxa olishdan iborat bo'lsa, hozirgi paytdagi xavf esa kompyuter ma'lumotlari to'plami, elektron ma'lumotlar, elektron massivlardan ularning egasidan ruxsat so'ramasdan foydalanishdir. Bulardan tashqari, bu harakatlardan moddiy foyda olishga intilish ham rivojlandi. Axborotning himoyasi deb, boshqarish va ishlab chiqarish faoliyatining axborot xafvsizligini ta'minlovchi va tashkilot axborot zahiralarining yaxlitligi, ishonchliligi, foydalanish osonligi va maxfiyligini ta'minlovchi qat'iy reglamentlangan dinamik texnologik jarayonga aytiladi. (4.2)

Shu o'rinda bir narsani doim yodda saqlashimiz kerakki, axborotlarni qabul qiluvchi shaxsning ma'naviy savodxon bo'lishi talab etiladi. Ma'rifatli, madaniyatli, soda qilib aytganda farosatli insonlagina har qanday axborotlarni birinchi galda o'z ongida filtrlay olishi kerak.

Mutaassiblik –(haddan ziyod berilib ketish) insonning ilmsizligi va johilligining hosilasi, uning o'ziga xos shaklidir. Ongi zaharlangan va mutaassibga aylangan kishilar o'zlari qilayotgan ishlarni to'g'ri deb hisoblagan holda, har qanday nomaqbul ishlardan ham bosh tortmaydilar. Vaholanki, ularni bu yo'lga boshlagan “rahnamolarning” asl maqsadi mohiyatan g'ayriinsoniy xarakterga ega. Har qanday jamiyat uchun, qanday shaklda chiqishidan qat'i nazar, mutaassiblikning tahdidi aqidaparastlikka asoslangan g'oyalarni yoyish orqali davlatga, uning rahbarlariga bo'lgan ishonchni yo'qqa chiqarishga urinishda namoyon bo'lishini alohida qayd etish lozim. (5.210)

Ma'rifatli jamiyatda avvalo fuqarolarda axborot qabul qilish madaniyatini shakllantirish, har qanday sub'yektiv fikrlarga ko'r-ko'rona ergashib ketavermaslik, axborot maydonida faoliyat ko'rsatayotgan jurnalistlar, bloggerlar milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda jarayonlarni yoritishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Ikkinchidan, mamlakat fuqarolarida, ayniqsa o'sib kelayotgan yosh avlod ongida vatan taraqqiyoti, tinchligi uchun daxldorlik hissini shakllantirish va uni kuchaytirish lozim.

Yurtimiz buguni va ertasi uchun qayg'urish, uning dunyo davlatlari bilan tengma-teng, hech bir xalqdan kam emasligini isbotlash hissini uyg'otish maqsadga muvofiq. Oila, mahalla, ta'lim muassasasi, korxona (tashkilot), jamoat tashkilotlarining barchasida ushbu daxldorlik tuyg'usi mavjud bo'lishi, “Men jonajon Vatanim taraqqiyoti va tinchligi yo'lida qanday xissa qo'shyapman”, degan bunyodkor g'oyani shu mamlakatda yashayotgan har bir fuqaroning asosiy tuyg'usiga aylantirish lozim. Uchinchidan, fuqarolarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish masalasi dolzarb vazifa bo'lmog'i lozim. Internet yoki boshqa ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan axborotlarni to'g'ridan to'g'ri qabul

qilmaslik, uni tahlil qilish hamda eng to'g'ri hamda asosli bo'lgan axborotlarni o'zlashtirish madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. (6.691)

XULOSA

Yosh avlodni "g'oyaviy axborot hurujlari"dan saqlashning strategik omillari sifatida shuni aytishimiz kerakki, zamonaviy axborot texnologiya va ilm-fan yutuqlarining tez tarqalishi ham taraqqiyotga xizmat qilmog'i, shu bilan birgalikda yovuz kuchlar o'z g'arazli maqsadlariga erishishda internetda qulay mafkuraviy ta'sir o'tkazishning o'tkir quroliga aylanib, qolmasligi eng avvalo xar bir insonning o'zining irodasiga bog'liq bo'lishini doimmo esda tutishimiz kerak. Ommaviy axborot vositalari orqali faqat ishonchli manbalardan foydalanish, yoshlarni "ma'naviy xavfsizligi"ni ta'minlashda har doim axborot va "g'oyaviy xavfsizlik" masalalariga alohida e'tibor qarata bilishi darkor. Shunday ekan biz olib borayotgan "jaholatga qarshi- ma'rifat" tamoyiliga asoslangan ijtimoiy roliklarimiz, ta'lim dargohlaridagi uchrashuvlarimizni o'z fuqarolik pozitsiyamiz deb bilamiz!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tahirov Behzod Nasriddinovich axborot xavfsizligi asoslari, "fan va ta'lim" nashriyoti Buxoro-2022y.,5-bet
2. https://t.me/ares_uz Multidisciplinary Scientific Journal,124-bet
3. Islom tafakkuri ilmiy jurnali 2025yil 1-son, 71-bet
4. Ilmiy maqola Abduqodirova Difuza Zikrillayevna Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti Axborot xavfsizligi tushunchasi va axborot xavfsizligini ta'minlash usullar, 1-2 betlar
5. O'bid Haydarov, Jamoliddin Ostonov, Ozoda Sultonova Falsafa uslubiy qo'llanma, Samarqand – 2022 y., 210-bet
6. "Ma'naviy barkamol yoshlar yangi O'zbekiston bunyodkori" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman 2024-yil 16-may,691-bet